

XUSUSIY OLIY TA'LIM MUASSASALARINING OLIY TA'LIM
SIFATINI OSHIRISHDAGI O'RNI VA AHAMIYATI

Qamarova Nigora Fayzullayevna

Buxoro davlat universiteti, magistratura ikkinchi bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada xususiy oliy ta'lim muassasalarining rivojlanishi, ulardagi ta'lim olish imkoniyatlari, oliy ta'lim muassasalari o'rtasida raqabotning shakllanishi va rivojlanishi, xususiy oliy ta'lim muassasalarida tashkil etilgan zamonaviy ta'lim texnologiyalari va ta'lim sifatini oshirishning o'ziga xos xususiyatlari haqida so'z yuritiladi. Shu bilan bir qatorda, xususiy oliy ta'lim muassasalarida ta'lim jarayonini tizimini takomillashtirish jarayonida e'tiborga olinishi zarur bo'lgan xususiyatlar, asosiy vazifalar va ularning amaldagi ifodasi, sohada kuzatilayotgan muammolar tahlili natijalariga tayangan holda xususiy oliy ta'lim muassasalarining oliy ta'lim sifatini oshirishdagi o'rni va ahamiyati muallifning yondashuvi asosida bayon etilgan.

Kalit so'zlar: xususiy oliy ta'lim muassasalari, ta'lim sifati, fan, davlat, kadrlar, chet el oliy ta'lim muassasalari, oliy ta'lim, sohalar, mutaxassislar, fan va texnologiyalar, xususiy sektor, boshqaruv tizimi, ta'lim sohasi va boshqalar.

KIRISH

Bugungi kunda butun dunyoda va yurtimizda xususiy oliy ta'lim muassasalari ko'payib va rivojlanib bormoqda. Xususiy oliy ta'lim muassasalarining ko'payishi har tomonlama ta'lim sohasida juda kata o'zgarishlarga sabab bo'lmoqdi. Avvalambor, oliy ta'lim muassasalarining ta'lim xizmatlari bozorida o'zaro raqobatlashishi sabab bo'lmoqda. Raqobat natijasida talabalarga sifatli bilim berish, ularni zamonaviy kasblarga tayyorlash va mehnat bozoriga malakali kadrlarni yetishtirib chiqarmoqda. Bundan tashqari, xususiy oliy ta'lim muassasalari professor-o'qituvchilarning o'z ustida ishlab malakasini oshirishiga, talabalarga bilim berishda turli xil innovatsion ta'lim texnologiyalaridan foydalanishga hamda talabalarni fanga qiziqtirish va ruhlantirish orqali ta'lim sifatini oshirishga sabab bo'lmoqda.

Dunyoda xususiy oliy ta'lim muassasalari sonining ko'payishi natijasida talabalar hamyonbop narxda yuqori sifatli ta'lim olishlari mumkin. Oliy ta'lim muassasalarini xususiylashtirish to'liq raqobat sharoitida raqobatni rag'batlantiradi, bu esa samaradorlikni oshirish, sifatni yaxshilash va xarajatlarni kamaytirishga olib keladi. Bu ham talabalarga nufuzli universitetlarda xorijdagi talabalar bilan raqobatlasha oladigan bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishlariga yordam beradi.

Bundan tashqari xususiy oliy ta'lim muassasalarining ko'payishidan o'qishga kirish faqatgina oldin davlat oliy ta'lim muassasalarining bakalavriat va magistratura

bo'yicha davlat buyurtmasi va to'lov-kontrakt asosida o'qishga qabul qilish kvotalari asosida amalga oshardi ammo hozirgi kunda istagan kishiga o'qishga kirishi va oliy ma'lumotli bo'lish imkoniyatiga ega. O'qishga kirish uchun keyin yil uchun o'qishga qabul qilish kvotalari e'lon qilinishini va kirish imtihonlari boshlanishi kutish shartmas. Xususiy oliy ta'lim muassasalarida o'qishga kirishi va o'qishni davom ettirish mumkin.

Dunyo tajribasidan barchamizga ma'lumki, dunyoning eng nufuzli oliy ta'lim muassasalarining ko'pchiligini xususiy oliy ta'lim muassasalari tashkil qiladi. Ularga misol tariqasida Amerika Qo'shma Shtatlaridagi Harvard universiteti, Stanford universiteti, Kolumbiya universiteti, Boston universitetini, Janubiy Koreyadagi Yonsei universiteti, Koreya universiteti, Hanyang universiteti va dunyo mamlakatlarining bir qancha xususiy universitetlarini ko'rishimiz mumkin. Yuqorida nomlari keltirilgan universitetlar hozirgi kunda malakali kadrlar tayyorlashda dunyoda yetakchi o'rinda turadi va ular o'rtasida sof raqobat shakllanganligi ham barchamizga ma'lum.

ADABIYOTLAR SHARHI

Ushbu mavzuni tadqiq etish yuzasidan xorijiy va mamlakatimiz olimlarining ta'lim tizimini takomillashtirish masalalari, oliy ta'lim tizimini isloh qilish va uni rivojlantirish hamda oliy ta'limda o'qitish sifatini oshirishga bag'ishlangan ilmiy asarlar mavjud.

Quyidagi mualliflarning asarlari oliy ta'lim muassasasi faoliyatini rivojlantirish masalalarini mamlakatning barqaror rivojlanishida muhim omil sifatida nazariy tushunishga bag'ishlangan: Brunner, Xose Joaquin va Entoni Tillett (2022), Veber. Lyusi, J. Duderstatdt(eds.) (2021), Sondergaard va Murthi (2023), Krainik V.L. (2022), Nikolaeva D. (2020), Rozhdestvenskiy A.V. (2019), Sattarov S.A. (2018), Odilov T., Raximova D.N. (2017), Abirov V.E. (2017), Ashurova H.Kh. (2018), Tojjeva A., Babaniyazova N. (2015), Usmanov S.A., Xalilov A.Kh. (2015), Baisariyev N.Kh. (2016), Babayeva N.M. (2015), Baratov R.U., Ramatov Zh.S. (2018), Vohidova N.Kh., Xalikova Z.M. (2016), Gaibnazarova Z.T. (2017). Globallashuv sharoitida oliy ta'lim tizimini rivojlantirish va xususiy oliy ta'lim muassasalarini ko'paytirish va rivojlantirish orqali oliy ta'lim sifatini oshirish masalalari munozarali bo'lib qolmoqda. Muammoning dolzarbligi va yetarli darajada rivojlanmaganligi ushbu muammo bo'yicha tadqiqot olib borishni va ushbu maqolaning mavzusini aniqlashga imkon berdi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida xususiy oliy ta'lim muassasalarining oliy ta'lim sifatini oshirish va rivojlantirishga oid xalqaro hamda milliy tajribalar bo'yicha ilmiy tadqiqotlar o'rganildi. Maqolani shakllantirish jarayonida kuzatish va tanlab olish, ilmiy-nazariy, empirik kuzatuv usullardan foydalanilgan. Tadqiqot natijalarining ishonchligi tadqiqotda qo'llanilgan xorijiy va milliy statistik rasmiy manbalardan

foydalanilgani bilan izohlanadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Hozirgi kunda butun dunyoda bo'lgani kabi bizning yurtimizda ham xususiy oliy ta'lim muassasalari ko'payib va rivojlanib bormoqda. O'zbekistonda fuqarolik jamiyati shakllanishi sharoitida muhim ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy transformatsiyalar yuz berdi, bu esa yuqori malakali kadrlarning mavjudligini talab etadi. "Iqtisodiyotda oldimizda turgan vazifalar haqida gapiradigan bo'lsak, birinchi navbatda, shuni ta'kidlash kerakki, yirik iqtisodiy islohotlarning mohiyati quyidagicha - iqtisodiy rivojlanishning strategik maqsadlariga erishishda faol ishtirok eta oladigan malakali kadrlarni o'qitishdir"[1]. Tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, O'zbekistonda malakali kadrlar tayyorlash masalasi bo'yicha hozirgi bir qancha muammolar mavjud. Bunga birinchi navbatda o'quv tizimi bozor iqtisodiyotini chuqurlashtirish jarayonidagi o'zgarishlarni hisobga olmagan sabab bo'ldi. Zamonaviy sharoitlarda davlat oliy ta'lim tizimi uchun - zamonaviy darajaga chiqish va globallashtirishning dolzarb muammolarini bartaraf etish bo'yicha qiyin vazifani belgilab berdi. Jamiyatni rivojlantirishning hozirgi bosqichida umumiy o'rta ta'lim maktablari, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari bitiruvchilariga munosib oliy ma'lumot berish dolzarb bo'lib qoldi.

Davlat oliy ta'limi ijtimoiy-iqtisodiy faoliyatning turli sohalarida, shuningdek boshqaruv xizmati sohalarida, ilmiy-tadqiqot, iqtisodiy, texnik va boshqa sohalarda keyingi ishga joylashgan xodimlarni o'qitishga mo'ljallangan. Oliy ta'lim tizimi bo'lajak mutaxassislar uchun taqdim etiladigan ko'nikmalar va maxsus bilimlar uchun mas'ul bo'lib, yoshlarni zamonaviy fan va texnologiyalar yutuqlaridan ijodiy foydalanishni hisobga olgan holda tanlangan kasbning vektorlarida nazariy yoki amaliy jihatlarni ochib berishga yo'naltiradi. Zamonaviy sharoitlarda mamlakatning barqaror rivojlanishi, xavfsizligi, raqobatbardosh tovarlar ishlab chiqarish, yoshlarni jamiyatning turli segmentlaridan universitetlarga teng qabul qilishda personalning roli va ahamiyati tobora dolzarb bo'lib bormoqda. Ushbu vazifa "universitetlarimiz obro'sini oshirish, xususiy ta'lim muassasalari sonini ko'paytirish, sohaga malakali kadrlarni jalb qilish va raqobatni kuchaytirish zarur"ligini qat'iy belgilab beradi.[2]

O'zbekistonda so'nggi yillarda xususiy sektorni rivojlantirish uchun yaratilgan sharoitlar bakalavr va magistrlik sifatiga yanada ko'proq talablar qo'yimoqda. Biroq, "tarkibiy o'zgarishlar jarayonida mutaxassislarning aksariyati ularga tayyor emasligi, bilim, malaka va ko'nikmalari zamonaviy talablarga javob bermasligi aniq bo'ldi. Masalan, dastlabki bosqichda magistratura va doktoranturada o'qish, malaka oshirish va stajirovka o'tash uchun chet elga 3,5 mingdan ortiq mutaxassislarni yuborish talab etiladi. Xalqaro ilmiy va amaliy tajribaga ega 600 dan ortiq yurtdoshga ehtiyoj bor. Hamkorlikka mingga yaqin chet ellik olim va mutaxassislarni jalb qilish zarur.[3]

Xususiy oliy ta'lim muassasalarining oliy ta'lim sifatini oshirishdagi

samaradorligini ta'minlab beruvchi bosh omil sifatida oliy ta'lim muassasalari boshqaruv tizimini qayd etishimiz mumkin. Oliy ta'lim muassasalari boshqaruv tizimini rivojlantirish, shuningdek, mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishidagi roli va ahamiyatini oshirish bo'yicha tegishli taklif va tavsiyalarni ishlab chiqishda quyidagi xususiyatlar e'tiborga olinishi maqsadga muvofiq:

birinchidan, ta'lim sohasi shiddat bilan rivojlanib borayotgan bir davrda oliy ta'lim muassasalari boshqaruv tizimining mohiyatan yangi tamoyillar asosida tashkil etish zaruratini yuzaga keltirdi;

ikkinchidan, olib borilayotgan islohotlar natijasida oliy ta'lim muassasalarning aksariyati o'z-o'zini moliyalashtirish tizimiga o'tishi hisobiga faoliyatga bozor mexanizmlarini joriy qilinishi. Xususan, moliyalashtirishning ichki va tashqi manbalari o'rtasidagi muvozanatni ta'minlash boshqaruv tizimining bosh vazifalaridan biriga aylandi;

uchinchidan, oliy ta'lim muassasalari faoliyatining asosiy yo'nalishi bo'lgan ta'lim sohasiga top-100 talikdagi universitetlar, internet va texnologik kompaniyalarning kirib kelishi oqibatida yuzaga kelgan raqobat kurashining keskinlashuvi oliy ta'lim muassasalari boshqaruv tizimining tashkiliy tuzilmasi va funksional vazifalarini qayta ko'rib chiqishni talab qilmoqda;

to'rtinchidan, oliy ta'lim sohasini rivojlantirish strategiyasiga muvofiq qabul kvotalarini o'rnatish imkoniyatlarini ortishi hamda ta'lim jarayonini tashkil etishda akademik mustaqillikning taqdim etilishi bilan boshqaruv tizimi oldida turgan vazifalar ko'lami kengaydi;

beshinchidan, mamlakatlarning jahondagi mavqeini, shuningdek, istalgan ko'rinishdagi faqulodda vaziyatlardan tezkorlik va kam talofat bilan chiqib ketish imkoniyatlarini belgilab beruvchi bosh omillardan biri sifatida inson kapitalini rivojlanishiga bo'lgan e'tibor kuchaydi.

Ayni paytda, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-sonli Farmoni bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi"da: "oliy ta'lim muassasalarida ta'lim, fan, innovatsiya va ilmiy-tadqiqotlar natijalarini tijoratlashtirish faoliyatining uzviy bog'liqligini nazarda tutuvchi "Universitet 3.0" konsepsiyasini bosqichma-bosqich joriy etish" shu bilan birga "xorijiy investitsiyalarni keng jalb qilish, pullik xizmatlar ko'laminii kengaytirish va boshqa byudjetdan tashqari mablag'lar hisobiga oliy ta'lim muassasalarida texnopark, farsayt, texnologiyalar transferi, startup, akselerator markazlarini tashkil etish hamda ularni tegishli tarmoq, soha va hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini tadqiq qiluvchi va prognozlashtiruvchi ilmiy-amaliy muassasalar darajasiga olib chiqish" kabi ustuvor vazifalarning qo'yilishi oliy ta'lim muassasalari boshqaruv tizimini shakllantirish va to'xtovsiz takomillashtirishning nazariy asoslarini tadqiq etish dolzarb masalalardan biriga

aylanmoqda.

Barcha rivojlangan mamlakatlar, jumladan AQSH, Buyuk Britaniya, Yaponiya, Germaniya, Janubiy Koreya, Singapurda xususiy oliy ta'lim muassasalarining o'rni beqiyos. Ta'lim tizimiga baho beruvchi, dunyo tan olgan oliy o'quv muassasalarining jahon reytinglarida ham xususiy ta'lim muassaslari eng yuqori o'rinlarni egallab kelmoqda.

Yurtimizda esa davlat ta'lim dargohlariga ajratilgan kvotalar ta'lim olmoqchi bo'lgan yoshlarimizni 9-10 foizinigina qamrab olayotir. Mazkur holat ularni chet el univeristetlari, aksariyat hollarda Qirg'iziston, Tojikiston, Qozog'istonda tashkil etilgan xususiy oliy ta'lim muassasalarida ta'lim olishga majbur qilayapti. Ammo mazkur davlatlarda tashkil etilgan OTMdagi ta'lim sifatiga kafolat berib bo'lmaydi, albatta. Qolaversa, bu holat respublikamizdan iqtidorli va tashabbuskor yoshlarni chet elga chiqib ketishiga ham sabab bo'lmoqda.

XULOSA

Xulosa tarzida shuni ta'kidlash lozimki, mamlakatimizda xususiy oliy ta'lim muassasalarini ochilishi xizmatlar eksportini rivojlantirishga olib keladi. Diyorimizga kelgan har bir xorijiy talaba kontrakt to'lovini amalga oshirishdan tashqari u o'z ehtiyojlarini qondirish uchun juda ham kam miqdorda sarf-xarajat qiladi. Bu ham, o'z o'rnida, iqtisodiyotimizni rivojlantirishga o'zining xissasini qo'shadi.

Xususiy oliy ta'lim muassasalarining tashkil etilishi respublikamizda yangi ish o'rinlar yaratilishi, xususiy va davlat ta'lim sektori o'rtasida sog'lom raqobat muhitini paydo bo'lishi, yoshlarimizni o'zlari xohlagan yo'nalishlar bo'yicha ta'lim olishi, ta'lim va sanoatni chambarchas bog'lanishi, ta'lim va kadrlar sifatini oshishi, davlat byudjetiga tushumlarning ko'payishi, byudjetdan qoplanadigan sarf-xarajatlarning kamayishi kabi ko'p masalalarga ijobiy yechim bo'la oladi. Raqobat bor joyda esa o'sish bo'ladi, o'sish bor joyda sifat bo'ladi, sifat bor joyda esa natija bo'ladi. Eng muhimi, milliy qadriyatlar va zamonaviy yutuqlarni o'zida jamlagan ilm maskanlaridan buyuk ajdodlarga munosib, Vatan ravnaqiga ulkan hissa qo'sha oladigan avlodlar yetishib chiqadi.

Bundan tashqari, maqolada keltirilgan nazariy ishlanmalarni amaliyotga joriy etish quyidagi hollardan iborat bo'lishi mumkin:

Birinchidan, oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida belgilangan strategik maqsad va vazifalardan kelib chiqqan holda oliy ta'lim muassasasi missiyasi va uzoq muddatli maqsadlarni belgilab olish. Bunda, mehnat bozori talablari doirasida yuqori malakali kadrlarni tayyorlash sifatini oshirish, ilmiy tadqiqotlarning istiqbolli yo'nalishlarini aniqlash va ilmiy natijalarni tijoratlash tirish mexanizmlarini ishlab chiqishga e'tibor qaratilishi lozim.

Ikkinchidan, belgilangan missiya va uzoq muddatli maqsadlarni amalga oshirish imkoniyatini yaratuvchi faoliyatni tashkil etish modelini tanlash. Bunda, oliy ta'lim

muassasasining tarixiy an'analari, uning ixtiyoridagi moddiy va nomoddiy resurslarni ob'ektiv baholanishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Uchinchidan, belgilangan missiya va uzoq muddatli maqsadlarni qo'shimcha moliyaviy qo'yilmalar, tashkiliy o'zgarishlarni talab etmagan holda amalga oshirish imkoniyatini beruvchi boshqaruv tuzilmasi tashkil qilinadi.

To'rtinchidan, oliy ta'lim muassasasi boshqaruv tizimining samarali faoliyatini tashkil etish uchun gorizontal, vertikal hamda teskari aloqa mexanizmlarini tartibga soluvchi me'yoriy-huquqiy hujjatlar majmuasi ishlab chiqiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni. <https://mfa.uz/ru/press/library/2018/09/16135>, 2018].
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni. <https://mfa.uz/ru/press/library/2018/09/16135>, 2018]
3. <https://kun.uz/ru/news/2018/12/18/v-2019-godu-dlya-podgotovki-kadrov-za-rubejom-budet-vydeleno-45-milliardov-sumov>, 2018
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030- yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-sonli Farmoni. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 09.10.2019.y., 06/19/5847/3887-son; 30.04.2020 y., 06/20/5987/0521-son
5. Maxmudov A.A. Oliy ta'lim muassasalarida moliyaviy resurslarni boshqarishga oid ayrim nazariy yondashuvlar. «Iqtisodiyot: tahlillar va prognozlar» jurnali. № 2 (13) 3, aprel-iyun, 2021-yil
6. Ахтамова М. Э., Уразов С. Ш. Негосударственные способы применения опыта развитых стран для повышения эффективности образовательных услуг в узбекистане //Архивариус. – 2021. – Т. 7. – №. 4 (58). – С. 37-40.
7. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent: "O'zbekiston", 2021. 14-b.
8. Бурденко Е.В. Рынок образовательных услуг в трансформируемой экономике: Дис...канд. экон. наук. - М.: РЭА, 2022.
9. Алиев Ш.М. Рынок образовательных услуг и вопросы его регулирования : Дис... канд. экон. наук. - М.: РЭА, 2022.
10. Altbach P.G., Kelly G.P. New Approaches to Comparative Education. Chicago and London: The University of Chicago Press, 2019. 228 p.
11. М.Қ.Пардаев "Хизмат кўрсатиш тармоқлари иқтисодиётининг айрим муаммолари" монография Тошкент-2022 йил, 20 бет
12. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Nodavlat ta'lim xizmatlarini ko'rsatish faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2017 yil 15 sentyabrdagi PQ-3276-sonli qarori
13. Urokboyevich T. S. TURIZMNING MAMLAKAT IJTIMOIIY-IQTISODIY RIVOJLANISHIDAGI AHAMIYATI //Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – 2021. – Т. 1. – №. 4. – С. 1128-1132
14. www.kun.uz
15. www.gazeta.uz
16. www.uzlidep.uz